

APPLICATIONS OF BRICK WALLS IN THE CONSTRUCTION OF MODERN HOUSES

Haydarova K.X.
SamDAQI teacher

Abstract: From the first years of independence of the Republic of Uzbekistan, large-scale reforms have been carried out in all sectors of the economy to introduce new and modern technologies, scientific and technical achievements, best practices. Like all other sectors, construction is developing. One of the most important tasks facing the country today is the construction of energy-efficient buildings and structures

ZAMONAVIY UY JOY QURILISHIDA G'ISHT DEVORLARINING QO'LLANILISH ISTIQBOLLAR

Haydarova K.X.
SamDAQI o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining dastlabki yillaridanoq xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yangi va zamonaviy texnologiyalarni, fan-texnika yutuqlarini, ilg'or tajribalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohalar kabi qurilish sohalari ham rivojlanmoqda. Hozirgi kunda respublikamiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri qurilayotgan bino va inshootlarni energiya samarador qilib qurish hisoblanadi.

1-Prezidentimizning 2009-yil 3-avgustdagi «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga asosan qishloqlarda aholi turmush madaniyati va farvonligini yuksaltirishga qaratilgan bunyodkorlik ishlari yanada qizg'in davom etamoqda.



1- Rasm. Samarqand shahrida g'ishtdan barpo etilayotgan ko'p qavatli turar-joy binolaridan biri.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan namunaviy loyihalar asosida barpo etilayotgan uy-joylar zamonaviy arxitektura talablariga to'la javob berishi, mukammal infratuzilmaga egaligi bilan ixcham shaharcha tusini olmoqda.


Ma'lumki g'ishtdan qurilayotgan turar joy binolar xajmi yildan yilga ortmoqda.

2009-2012-yillarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurish bo'yicha maxsus dasturning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizning 159 ta qishloq tumanida 650 ta yangi qishloq uy-joy massivi barpo etildi, umumiy maydoni 3,2 million kvadrat metr bo'lgan 23,6 mingdan ortiq yakka tartibdagi uy-joy qurildi. Ushbu maqsadlarga 1,2 milliard dollardan ziyod miqdordagi investitsiyalar yo'naltirildi. (1)

Nafaqat uzbekistonda balki boshqa shaxarlarda xam g'ishtdan qurilayotgan binolarga yil sayin talab ortmoqda. Masalan: maskva shaxrini kuraylik,

Maskva shaxridagi G'ishtdan qurilgan Turar joy binolar xajmi ming.m.kv.

Ko'rsatkichlar	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Umumiy maydon	3342.3	3690.6	4274	4443	4578.6	4648.5	4802	4827.7



Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, g'ishtli binolar seysmik hududlarda ko'p tarqalgan bo'lsada, zilzilabardoshlik nuqtai nazaridan zaif binolar tipiga kiradi. Shu sababli seysmik hududlarda quriladigan g'ishtli binolarning balandligi qurilish hududining seysmikligiga qarab 3-5 qavatdan oshmaydi. Bu holatning asosiy sababi g'isht devor monolitligining, ya'ni yaxlitligining juda pastligidir. agar to'g'ri hisoblab, to'g'ri loyihalansa hamda qurilish qoidalariga to'liq amal qilgan holda barpo etilsa, g'isht devorli binolar ham seysmik kuchlarga yetarli darajada bardosh bera oladi.

Barcha yuk ko'taruvchi konstruksiyalar (bo'ylama va ko'ndalang devorlar, yopmalar) bir-biri bilan mustahkam bog'langan holdagina bino zilzila kuchlariga bir butun fazovoy konstruksiya sifatida qarshilik ko'rsatadi. Agarda bu bog'lanish mavjud bo'lmasa yoki zaif bo'lsa, bo'ylama devorlar ko'ndalang devorlardan ajralib ketishi va ba'zi hollarda qulab tushishi mumkin. Devor ortidan orayopmalar ham to'liq yoki qisman bosib qoladi.

Antiseysmik choralar qo'llanmagan binolarda bunday hodisalarni ko'plab uchratiladi. Binolarni zilzilada beshikast asrab qolish uchun sinovdan o'tgan maxsus konstruksiyalardan foydalaniladi. Masalan, binoning perimetri bo'ylab antiseysmik kamarlar ishlanadi, yopmalar bir-biriga va devorlarga puxta bog'lanadi, devor burchaklariga hamda kesishadigan erlariga armatura yotqiziladi va hokazo.

Ma'lumki g'ishtdan qurilgan binolar uzoq tarixga egadir. Butun dunyoda g'ishtdan barpo etilgan shunday binolar borki ulaning yoshi 100-150 yilni tashkil etadi.

G'ishtdan qurilgan va qurilayotgan binolar quyidagi afzalliklarga ega:

- Mustaxkamlik-bu eng muxim afzaliklaridan biridir, chunki xar bir inson yashayotgan uyini mustaxkam va uzoq xizmat qilishini xoxlaydi.
- Uzoq muddatga chidamliligi, misol qilib aytadigan bo'lsak g'ishtdan qurilgan binolarni fasadini remontsiz xam kamida 100yil xizmat qilalar ekan.
- G'isht loy, qum va suvdan tayorlanadi va shuning uchun tabiiy va toza materialdir, bu esa inson salomatligiga foydalidir.
- Yana bir muxim afzalliklaridan biri bu-sovuqqa chidamliligidir, ma'lumki qancha kup sovuqqa chidamliligi yuqori bo'lsa binobiz shuncha uzoq vatq xizmat qiladi.
- Estetika va universalligi
- Olovbardoshligi
- Shumaizolyatsiya

October, 30th 2021



2 -rasm. Namunaviy loyihalar asosida qurilgan uylar.

Mamlakatimizda izchil iqtisodiy o'sish aholining yashash tarzi, turmush sharoitiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning turar-joy imoratlari sifati, funksionalligiga bo'lgan talabi ham o'zgarib bormoqda. Endilikda yurtdoshlarimiz bugun qurayotgan imorati ko'p avlodlarga bekamu ko'st xizmat qilishini o'ylab, sifatiga, zamonaviyligiga alohida e'tibor qaratishayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.
2. B.A.Hobilov, U.Faxriddinov bino va inshootlar zilzilabardoshligi Toshkent – 2014
3. www.google.ru